

MA'NAVIY ETUK YOSHLARNI TARBIYALASHNING SAMARALI SHAKLLARI

Z. Xudayqulova

GulDU psixologiya kafedrasini katta o'qituvchisi

Annotatsiya: hozirgi kunda yoshlar ongida milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, ta'lif-tarbiya sohasidagi eng dolzarb vazifa darajasi ko'tarilganligi va amalga oshirish shartlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, g'oya, milliy g'oya, mafkura, insonparvarlik, tinchlik, faravonlik, axborot kommunikatsiya texnologiyalari.

O'quvchi yoshlarni yot g'oyalardan himoya qilish uchun eng avvalo milliy g'oya, mafkura degan degan tushunchalar haqida ma'lumotga ega bo'lishi zarur.

"Mafkura" atamasi tilimizga arab tilidan kirib kelgan bo'lib, nuqtai nazar, fikrlar tizimi degan ma'noni anglatadi va jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, falsafiy, diniy, ilmiy, axloqiy, badiiy qarashlar, milliy an'ana va urf-odatlar majmuuni o'z ichiga oladi. Mafkura bu ijtimoiy borliqning, ya'ni jamiyat hayotining inson ongida aks etishi, ularning amaliy faoliyatida, kundalik hayotida nazariy asos va ruhiy tayanch bo'lib xizmat qilishidir.

Hozirgi kunda yoshlar ongida milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, tarbiya sohasidagi eng dolzarb vazifa darajasi ko'tarildi.

Milliy g'oyaning asosiy tushuncha va tamoyillariga mos keladigan targ'ibot tizimini belgilab olish mafkuraviy tadbirlar samaradorligining muhim omillaridandir. Bu borada targ'ibotning yoshlar ma'lumoti, qiziqishi, ruhiyati mos bo'lishi talab etiladi. Ta'lif tizimining turli bosqichlarida shunga amal qilinsa, milliy g'oya va mafkuramiz yoshlar ongi va qalbiga singib boradi.

Aslida, milliy g'oya va mafkurani yoshlar ongi va qalbiga singdirish beshikdan boshlanadi. Ona allasi milliy g'oya va milliy mafkuramizning eng dastlabki sodda shaklidir. Unda ona orzusi, umidi, istak va maqsad-niyatlari aks etadi. Ona allasi vatanzavarlik, insonparvarlik va mehr-muhabbatning eng ixcham ifodasidir. Shu holatning o'zi ham oila va millat o'rtafigi, uy-ostona va ona-Vatan o'rtafigi uzviylikni, tadrijiylikni ko'rsatadi.

Bola ongi va qalbiga ona allasi orqali singdirilgan milliy g'oya va mafkuramizning dastlabki kurtaklari, muktabgacha ta'lif maskanlarida yanada rivojlantiriladi. Bog'cha bolalariga qo'shiq va turli xil o'yinlarni ijro etish, she'rlarni yodlatish kabi tarbiyaviy ahamiyati yuksak bo'lgan vazifalar bilan birgalikda, ovqatlanish, kiyinish, yuvinish, muomala, dam olish kabi yana bir talay ko'nikmalar, odatlar, qoidalar, burch va vazifalar singdiriladi. Aksariyat hollarda bog'chada olingan tarbiya kishi xotirasida toshga o'yilgan yozuv kabi bir umrga muhrlanib qoladi.

Bog'cha bolalariga she'r va qo'shiq yodlatish uchun uning bola yoshiga, dunyoqarashi va tushunchasiga mosligi, ohangdorligi, qiziqlarliligi hamda ta'lif-

tarbiyaviy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratmoq lozim. Bolaga yodlatish uchun tanlangan qo'shiq va she'rning milliy g'oya va mafkuramizga uyg'unligiga e'tibor qaratish bilan birga uning badiiy yuksakligini, bola ruhiyatiga mosligini ham hisobga olish shart.

Bog'chada shakllangan milliy g'oya va mafkuramiz kurtaklari umumta'lim maktablarida barg yozadi. Bu bosqichda milliy g'oya va mafkura o'quvchilar ongida tizim sifatida shakllanmog'i lozim. Bunday tizim umumta'lim maktablarida turli fanlarni o'qitish jarayonida shakllanadi, mustahkamlanadi. Barcha fanlarning yuzaga kelishida ajdodlarimizning va yurtdosh olimlarimizning xizmatlari juda ulkan bo'lib, ular qalbida ajdodlarimizdan faxlanish hissini uyg'otish, ular kabi buyuk shaxslar bo'lismi istagini, tuyg'usini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bunga erishmoq uchun o'quv rejasiga kiritilgan barcha fanlardagi har bir mavzuni yoritishda buyuk allomalarining ushbu muammoning echimiga qo'shgan hissasini, ilmiy dalillar, qiyosiy o'xshatishlar, taqqoslashlar yordamida ko'rsatib berish ijobjiy natija beradi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilariga milliy g'oya va milliy mafkurani targ'ib qilish, umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida, shu yo'nalishda olib boriladigan ish bilan juda ko'p umumiylklarga ega. Bular orasida olib borilgan mafkuraviy ishlarda umumiylilik, o'xshashlik yana shunda ham ko'rindaniki, ular milliy g'oya va milliy mafkurani anglab etishdan tashqari uni himoya qilish qobiliyati va ko'nikmasiga ham ega bo'lislari kerak. Shu bilan birga, o'rta maxsus ta'lim tizimi muassasalarida umumta'lim maktab o'quvchilaridan tafovut qiluvchi o'ziga xos xususiyatlar ham bor. Bu o'quv yurtlarida yoshlar institut va universitetlarda o'qishni davom ettirishga va mustaqil mehnat faoliyatiga hozirlik ko'radilar. Kasbiy tayyorgarlikning dastlabki bosqichini egallaydilar.

O'tmishdan saboq olish haqidagi fan bo'lgan tarixning ko'rsatishicha, bizning g'oyaviy muxoliflarimiz, xususan, diniy ekstremizmni va diniy fundamentalizmni targ'ib qiluvchilar, asosiy e'tiborni maktab, litsey hamda kollej o'quvchilariga qaratib, ularga o'z g'oyalarini singdirishga urinmoqdalar. Milliy g'oya va mafkura yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'quvchi-yoshlarga fanlarni o'qitish jarayonida, darsdan tashqari tadbirdarda; olimlar, mutaxassislar, fan, madaniyat va maorifning jonkuyar vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazish orqali samarali singdirib boriladi. Bunday tadbirdar maxsus tayyorgarlik ko'rilib, o'quvchilarni ruhiy va aqliy yo'naltirilgan holda amalga oshirilishi zarur. Mavzu bir necha kun oldin e'lon qilinib, o'quvchilarning mavjud bilimlari yanada boyitilishi, tushunmagan joylariga aniqliklar kiritilishi, tegishli savollarni tayyorlab qo'yishlari, o'zlarining shaxsiy fikr va munosabatlarini tarkib toptirilishi foydali bo'ladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda juda aniq maqsadlar tizimi ishlab chiqilsa, undan kelib chiqadigan vazifalar har bir ishtirokchiga qaratilgan bo'lsa, kafolatlangan natija qo'lga kiritiladi.

Hozirgi paytda axborot kommunikatsiya texnologiyalari yoshlarga ta'lim va tarbiya berishning keng tarqalgan shakliga aylandi. Mavzuning so'z bilan

ifodalanishi qiyin bo'lgan jihatlarini namoyish etish, virtual kesmalarda aks ettirish, bir so'z bilan aytganda taqdimot qilish har bir ishtirokchini mustaqil, ongli va faol bo'lismayni ta'minlaydi.

Muhokama etilayotgan mavzuning mazmunidan kelib chiqqan holda muammoli savol, vazifa, topshiriq va vaziyatlar hosil qilinsa va ularning echimi har bir ishtirokchi tomonidan izlansa, samaradorlik yanada ortadi. Bunday hollarda quyidagi interfaol metodlardan foydalanishni tavsiya etish mumkin. Muhokama etilayotgan mavzuning mazmuniga mos holda "aqliy hujum", "bahslar", "muzokara", "debat", "shaxsiy fikr", "davra suhbat", "rolli o'yinlar", "intervyu", "FSMU", "BxBxB", "boshqaruv" va boshqa metodlarni qo'llash ijobiy natija beradi. Bu metodlardan foydalanishning tartibi, mazmun-mohiyati haqida juda ko'p yozilgani sababli ularni qo'llash metodikasi haqida to'xtalmadik. Lekin shuni ta'kidlashimiz lozimki, albatta auditoriyadagilarning bilim saviyasi va dunyoqarashlariga mos holda muammo hosil qilinadi. Echimni topish ishtirokchilar tomonidan amalga oshiriladi. Bunda vaqt me'yoriga amal qilish, hech kimning fikrini inkor etmagan holda eng to'g'ri va ma'qul javobni tanlash boshqaruvchining mahoratiga bog'liq bo'ladi.

Oliy o'quv yurti talabalarini milliy g'oya va milliy mafkurani nazariy jihatdan chuqur anglaydigan shaxslar sifatidagina emas, balki shu g'oya va mafkuraning faol targ'ibotchilari qilib ham kamolotga etkazish zamon talabidir. Buning uchun talabalarga nazariy bilimdan tashqari, targ'ibotchilik ko'nikmalarini hosil qilish lozim. Shundagina ular diniy ekstremizm, aqidaparast yoki diniy fanatizm kabi illat vakillariga qarshi tura oladigan, ularning asl basharasini ocha oladigan, ularning g'oyasi, ta'limoti puch, sarob singari aldovchi va jamiyat uchun ma'nnaviy inqiroz ekanligini ko'rsata oladigan ruhan tetik, ma'nnaviy barkamol insonlarga aylanadi.

Xullas, bunday yoshlardan diniy ekstremizm va aqidaparast unsurlarga nisbatan, ularning jaholatiga nisbatan jaholat bilan emas, balki gumanizm, odamiylik g'oyalari bilan sug'orilgan ma'nnaviyatimizdagi ma'rifat bilan javob berib, do'stona muhitning, muloqotning tug'ilishiga ko'maklashadi, xizmat qiladi.